

RASMIY USLUB MATNLARIDA PRESUPPOZITSIYANING LINGVOPRAGMATIK XUSUSIYATLARI

Saidaliyeva Muslimaxon Soibjonovna

Qoʻqon universiteti Andijon filiali

IT va ijtimoiy-gumanitar fakulteti 2-bosqich 24-03-guruh talabasi.

mahmudjonovshohruhbe97@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.21462424>

Annotatsiya. Ushbu maqolada rasmiy uslub matnlarida presuppozitsiyaning lingvopragmatik xususiyatlari tadqiq etiladi. Tadqiqotda rasmiy nutqda yashirin axborotning ifodalanishi, kommunikativ maqsadning yuzaga chiqishi hamda presuppozitsiyaning semantik va pragmatik imkoniyatlari tahlil qilinadi. Shuningdek, rasmiy uslubga xos til birliklari, sintaktik qurilmalar va nutqiy vositalarning presuppozitsion maʼno hosil qilishdagi oʻrni misollar asosida yoritiladi. Maqolada presuppozitsiyaning nutqiy tejamkorlikni taʼminlash, axborotni ixcham shaklda yetkazish hamda nutq taʼsirchanligini oshirishdagi ahamiyati ochib berilgan. Tadqiqot natijalari rasmiy uslubning pragmasemantik xususiyatlarini aniqlash hamda presuppozitsiya hodisasining zamonaviy tilshunoslikdagi oʻrnini belgilashda muhim ilmiy ahamiyat kasb etadi.

Tadqiqot natijalari rasmiy nutqning pragmatik tabiatini chuqurroq anglash hamda zamonaviy tilshunoslikda presuppozitsiya masalalarini oʻrganishda muhim ilmiy manba boʻlib xizmat qiladi.

Kalit soʻzlar: presuppozitsiya, rasmiy nutq, lingvopragmatika, pragmatik maʼno, yashirin axborot, kommunikativ maqsad, semantika, rasmiy uslub, diskurs, nutq akti, til birliklari, pragmatik tahlil.

Kirish. Tilshunoslikda presuppozitsiya nutq jarayonida bevosita ifodalanmagan, ammo muloqot ishtirokchilari tomonidan anglashiladigan yashirin axborotni ifodalovchi muhim pragmatik hodisa hisoblanadi. U nutqning semantik va pragmatik qatlamlari oʻrtasidagi bogʻliqlikni taʼminlab, kommunikativ maqsadning samarali amalga oshirilishiga xizmat qiladi.

Ayniqsa, rasmiy uslub matnlarida axborotning aniq, ixcham va mantiqiy bayon qilinishi talab etilishi sababli presuppozitsiyaning oʻrni alohida ahamiyat kasb etadi. Rasmiy nutq hujjatlar, buyruqlar, farmoyishlar, nizomlar, eʼlonlar va boshqa rasmiy matnlar orqali namoyon boʻlib, ularda til vositalaridan tejamkorlik asosida foydalaniladi. Bunday matnlarda koʻpincha ayrim maʼlumotlar bevosita ifodalanmaydi, balki presuppozitsiya orqali anglashiladi. Shu jihatdan rasmiy uslub matnlarida presuppozitsiyaning lingvopragmatik xususiyatlarini oʻrganish zamonaviy tilshunoslikning dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi. Mazkur tadqiqotning maqsadi rasmiy uslub matnlarida presuppozitsiyaning ifodalanish vositalari, pragmatik imkoniyatlari hamda kommunikativ vazifalarini aniqlashdan iborat.

Tilshunoslikda presuppozitsiya hodisasi nutq jarayonida yashirin axborotni ifodalovchi muhim pragmatik vositalardan biri sifatida talqin qilinadi. Mazkur hodisa orqali soʻzlovchi asosiy fikrdan tashqari qoʻshimcha maʼlumotni ham tinglovchiga yetkazadi. Ayniqsa, rasmiy uslub matnlarida presuppozitsiya kommunikativ maqsadni aniq va ixcham shaklda ifodalashga xizmat

qiladi. Shu sababli rasmiy nutqda presuppozitsiyaning ifodalanish xususiyatlarini o'rganish zamonaviy pragmalingsvistikaning dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi.

Presuppozitsiya haqidagi dastlabki ilmiy qarashlar nemis mantiqshunosi Gottlob Frege tomonidan ilgari surilgan. Olim presuppozitsiyani hukmning mantiqiy asosi sifatida izohlaydi [1, 254-b]. Keyinchalik bu masala Peter Strawson tomonidan tilshunoslik nuqtayi nazaridan rivojlantirilgan. Tilshunoslikda presuppozitsiya yashirin ma'no, tagma'no, pragmatik ma'no kabi tushunchalar bilan ham bog'liq holda talqin qilinadi.

Ushbu fikrini isbotlash uchun "Kepler bechoralikdan olamdan o'tdi" gapini misol keltiradi va bu yerda presuppozitsiya sifatida Kepler degan odamning yashaganligini nazarda tutadi. G.Frege mavjudlik bildiruvchi ikkinchi hukmni presuppozitsiya deb ataydi.

Presuppozitsiya termini tilshunoslikka P.Strawson nomi bilan bog'liq bo'lib, uning qarashlari ham Fregening qarashlariga juda yaqin turadi. Demak, presuppozitsiyaga jumladan anglashilgan ikkilamchi axborot deb qarash mumkin. Shu kunga qadar tilshunoslikda bu hodisaga nisbatan presuppozitsiya, tagbilim, ichki ma'no, pragmatik ma'no, sigmatik ma'no terminlari qo'llanilgan.

Tadqiqot usullari: Tadqiqotni amalga oshirish jarayonida tavsifiy (deskriptiv), lingvopragmatik, semantik va kontekstual tahlil usullaridan foydalanildi.

– **Tavsifiy usul** yordamida presuppozitsiya haqidagi nazariy qarashlar o'rganildi va umumlashtirildi.

– **Lingvopragmatik tahlil usuli** asosida rasmiy nutqda yashirin ma'no hosil qiluvchi til birliklari va nutqiy vositalarning funksiyalari tadqiq etildi.

– **Semantik tahlil usuli** orqali presuppozitsiyani yuzaga keltiruvchi leksik va grammatik vositalarning ma'noviy xususiyatlari aniqlandi.

– **Kontekstual tahlil usuli** yordamida rasmiy matnlarda qo'llanilgan gap va iboralarning yashirin mazmuni hamda kommunikativ maqsadi ochib berildi. Tadqiqot materiali sifatida rasmiy uslubga oid matnlar, shuningdek, nazariy manbalar hamda badiiy asarlardan olingan misollardan foydalanildi.

Ilmiy ishning natijalari: Tadqiqot natijasida rasmiy uslub matnlarida presuppozitsiya turli lingvistik vositalar orqali yuzaga kelishi aniqlandi. Jumladan, leksik birliklar, grammatik shakllar, sintaktik qurilmalar hamda kontekstual omillar yashirin axborotni ifodalashda muhim rol o'ynashi kuzatildi.

Tilshunos olimlarning fikriga ko'ra, "presuppozitsiya" hodisasi muloqot qatnashchilarining nutqiy tejamlilikka ehtiyoji, til birliklarining nutqiy vaziyatda sintaktik strukturaga qo'shimcha ikkilamchi ma'lumot berish imkoniyatiga egaligi, suhbat qatnashchilarining bo'lib o'tgan yoki bo'lajak jarayon haqidagi oldindan ma'lum bilimlari kabi omillar ta'sirida o'tish joizki, presuppozitsiya hodisasi mantiq va tilshunoslik fanlari kesishmasida yuzaga kelgan hodisa hisoblanadi. Ushbu fanlar uzviy bog'lanmas ekan, presuppozitsiya hodisasining mohiyati to'liqligicha namoyon bo'lmaydi.

Presuppozitsiya hodisasi hukmning ikkilamchi ma'noga, axborotga, ayrim hollarda ikkilamchi hukmga ishorasi natijasida yuzaga keladi.

Bu jarayonda til birliklarining presuppozitsiya hodisasini yuzaga keltirishdagi roli muhim hisoblanadi, Ayrim o‘rinlarda nutq vaziyatida so‘z semantikasidagi ma’no otenkasi presuppozitsiyani yuzaga keltiradi:

Ular bir necha vaqt suhbatlashishganlaridan keyin bir-birlarini tanib qolishdi

Yuqoridagi misolda “tanib qolmoq” so‘zining ma’nosi nutq vaziyatidan kelib chiqqan holda ikkilamchi ma’noga ishora qilib o‘tgan. Ya’ni bu misoldan nutq adresatlari oldin ham bir-birlari bilan ko‘rishishgan yoki tanish bo‘lishgan degan ikkilamchi xulosa kelib chiqadi. Ayrim o‘rinlarda gap strukturasidagi o‘zgarishlar bevosita ikkilamchi ma’noga (presuppozitsiyaga) ishora qilishi mumkin.

Unsin uchun - bechora qiz uchun – bu qanday mudhish sinov (A.Qahhor “Dahshat” hikoyasi) [4, 161-b].

Yuqoridagi gap strukturasidagi ajratilgan bo‘lakning ishtirok etishi gap semantikasidagi pragmatik ma’noga so‘zlovchining bevosita diqqatini tortadi. Agar ushbu misol “Unsin uchun bu mudhish sinov” jumlasini orqali ifodalanganda tinglovchi Unsinning ruhiy holatini to‘liq tushunib yeta olmagan bo‘lar edi. To‘ldiruvchining ajratilishi yuqoridagi misolda presuppozitsiya hodisasini yanada bo‘rttirib, ya’ni Unsinning shu ishga majburligi, uning bu sinovdan o‘tishdan ortiq chorasining yo‘q ekanligi haqidagi ikkilamchi axborot gap orqali ifoda etilayotgan asosiy propozitsiyasidan ham ahamiyatlilik kasb etgan. Demak, yuqoridagi misollar va nazariy bahslar shuni ko‘rsatib turibdiki, presuppozitsiya hodisasi nutqiy jarayonda turli vositalar va birliklar orqali ifodalanishi mumkin.

Rasmiy nutqqa oid matnlarning ayrim turlari so‘zlovchining shaxsiy maqsadini ifoda etsa, ba’zilar umumiy pragmatik maqsadni qamrab oladi. Bu jihatdan ularni quyidagi turlarga ajratish mumkin:

1. So‘zlovchi (shaxsiy) maqsadini ifoda etuvchi rasmiy matnlar.
2. So‘zlovchi va tinglovchi maqsadini ifoda etuvchi rasmiy matnlar.
3. Oilaviy maqsadni ifoda etuvchi rasmiy matnlar.
4. Umumiy (jamoaviy) maqsadni ifoda etuvchi rasmiy matnlar.

Rasmiy nutqqa oid matnlarda ifodalangan propozitsiyani so‘zlovchining subyektiv munosabatida asoslangan holda quyidagicha tasniflash mumkin:

1. Buyruqqa asoslangan propozitsiya.
2. Taklifga asoslangan propozitsiya.
3. Mas’uliyatga asoslangan propozitsiya.
4. Ishonch va faxrga asoslangan propozitsiya.

Presuppozitsiya propozitsiyaning tarkibida ifodalanib, ma’lum bir axborotda propozitsiyaga qarama-qarshi qo‘yish bilan hosil qilinadi va propozitsiya presuppozitsiyaning matndan anglashiladigan tasdig‘i bo‘lib, presuppozitsiya hukmning mantiqiy asosi hisoblanadi. Presuppozitsiya hodisasi hukmning ikkilamchi ma’noga, axborotga, ayrim hollarda hukmga ishorasi natijasida yuzaga keladi. Bu jarayonda til birliklarining presuppozitsiya hodisasining yuzaga keltirishdagi roli muhim hisoblanadi.

Rasmiy nutqning pragmasemantik xususiyatlaridan biri unda bir necha vositalar, ya'ni rasmiy nutqqagina xos bo'lgan vositalar presuppozitsiya hodisasiga ishora qilib o'tadi.

Uslubshunos olimlar qarashlari va o'rganishlaridan bilamizki, rasmiy uslubning o'ziga xos belgisi – ifoda etilayotgan fikrning qisqa va lo'nda ekanligi, aniq va ravshan tarzda bayon etilishidir. Bu ma'lumotdan xuddi rasmiy nutqda hech qanday pragmatik hodisaga o'rin qolmagandek ko'rinadi.

Presuppozitsiya hodisasi nutqiy jarayon ishtirokchilariga sintaktik strukturani ixchamlashtirish, til birliklarini nutqiy vaziyatda tejash imkonini beruvchi, nutq egalariga muomala jarayonida tilning ichki imkoniyatlarini boshqa til egalariga ko'rsatib berishda yordamga keluvchi hodisadir [3, 157-b]. Rasmiy nutqda bu jarayonga juda ko'p o'rinlarda guvoh bo'lishimiz mumkin. Fikrimizning isboti tariqasida adibimiz Abdulla Qahhor ijodidan bir jumla keltiramiz: Ho'kizingiz hech qayoqqa ketmaydi, topiladi (A.Qahhor, "O'g'ri" hikoyasi). Ellikboshining nutqidan olingan ushbu parchani kontekstning qolgan parchalariga bog'lagan holda tahlil qilamiz. Ijodkorning presuppozitsiya hodisasidan unumli tarzda foydalangan orqali so'zlovchining ichki niyatini, ikkilamchi hukmni ifodalab berganiga guvoh bo'lamiz. Yuqoridagi misolda rasmiy nutqqa xos tarzda majhul nisbatdagi fe'l bilan ifodalanmoqda.

Lekin ijodkor shu oddiygina nisbat shakli orqali so'zlovchining ichki niyatini hukm shaklida ifodalab bermoqda. Ya'ni Qobil boboning ho'kizi topiladi, lekin ellikboshi tomonidan emas. Chunki ellikboshi majhul nisbatdan foydalanish orqali undan umid qilish kerak emasligiga ishora qilib ketgan. Asarning keyingi parchalaridagi voqealar rivoji esa ushbu fikrimizning tasdig'i hisoblanadi: Ho'kizing hech qayoqqa ketmaydi, topiladi (A.Qahhor, "O'g'ri" hikoyasi) [5, 134-b]. Ellikboshining shu jumlasini majhul nisbat shaklini qo'llash orqali "Ho'kizingni men topib bermayman" degan ikkilamchi axborotning uzatilishiga xizmat qilib presuppozitsiya hodisasini yuzaga keltirgan.

Rasmiy nutqda keng qo'llaniluvchi nutqiy odat tusiga kirgan buyruq ohangiga ega gaplar tahliliga e'tibor bersak, uslubning talabi nuqtayi nazaridan ikkilamchi axborotning ifodalanishiga guvoh bo'lamiz:

Bu yerda chekish mumkin emas!

Yuqoridagi jumladan ifodalanayotgan asosiy propositsiya chekish mumkin emasligidir. Endi gap strukturasi va uslub talabi jihatidan yondashsak, "Bu yer chekilmaydigan joy" degan ikkilamchi axborotni anglashimiz mumkin.

"O'zbekiston so'mini soxtalashtirish qonunga muvofiq ta'qib qilinadi".

Ushbu gapni tahliliga qaraylik:

1) gap orqali ifodalanayotgan asosiy propositsiya davlatning valyutasini soxtalashtirgan insonlarning ta'qib qilinishidir;

2) yuqoridagi gapni pragmatik jihatdan tahlil qilsak, turli ikkilamchi axborotlarning ifodalanayotganini va ushbu axborotlar turli til birliklari tomonidan yuzaga keltirayotganiga guvoh bo'lamiz:

a) ushbu gapda qo'llangan "so'm" leksemasi "O'zbekistonning valyutasi, ya'ni pul birligi "so'm" degan ikkilamchi axborotni ifodalamoqda.

b) "qonunga muvofiq" birikmasi esa O'zbekistonning qonuniy davlat ekanligi haqida ikkilamchi axborotni yuzaga keltirmoqda. Chunki ushbu ibora shariatga muvofiq emas, qonunga muvofiq yoki ixtiyoriy emas, aniq qonunlarga muvofiq degan o'zgarmas hukmni yuzaga keltirgan.

c) "soxtalashtirish" leksemasi ta'qib qilinishiga asos bo'lish sababchi bo'lish degan ikkilamchi hukmni ifodalab kelmoqda. Ya'ni soxtalashtirmasang ta'qib qilinmaysan va shu yerda hukm ham ifodalanayotganiga guvoh bo'lamiz.

d) kesim tarkibida ma'lum shaxs-son shakllarining qo'llanmaganiga e'tibor beraylik. Bunda so'zlovchi tinglovchining shaxsidan qat'iy nazar ta'qib qilishi haqida ogohlantirmoqda.

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash joizki, presuppozitsiya rasmiy uslub matnlarining pragmatik va semantik tuzilishida muhim o'rin egallaydi. U til birliklari, sintaktik vositalar hamda nutqiy qurilmalar orqali ifodalanib, yashirin axborotni yuzaga chiqarishga xizmat qiladi.

Presuppozitsiya yordamida rasmiy nutqning ixchamligi, aniqligi va ta'sirchanligi ta'minlanadi. Tadqiqot natijalari rasmiy uslub matnlarining pragmasemantik tabiatini chuqurroq anglash hamda presuppozitsiya hodisasining lingvistik xususiyatlarini aniqlashda muhim nazariy ahamiyatga ega.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

- 1.A.Nurmonov. Tanlangan asarlar. 1-jild. - T.: Akademnashr, 2012. 404-bet.
- 2.Z.Akbarova. O'zbek tilining murojaat shakllari. - T.: Akademnashr. 2015. 237-bet.
- 3.Sh.Safarov. Pragmalingvistika. - Toshkent. 2008. 269-bet
- 4.A.Qahhor. Dahshat. - Toshkent. 2008. 168-bet
- 5.A.Qahhor. O'g'ri. - Toshkent. 2005. 241-bet